



Xorazm viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 5 476 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 78 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 398 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 8 241,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-mayiga nisbatan 22,8 % ga oshdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 336,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 157,3%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 7 904,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 121,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 912,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 131,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)





Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 449 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 415 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-may oylarida viloyatning ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 051,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 13,6 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 3 770,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,5 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi esa 93,1 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Shovot (34,3 m.), Qo'shko'pir (3,2 m.), Bog'ot (3,2 m.) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 640 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 629 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 5 385,5 mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025- yilning mos davriga nisbatan 10,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 80,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmining o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: M.Egamov Tel: (9090)	Ijrochi: R.Buxarbayev Tel: (9040) e-pochta: savdo@xorazmstat.uz	Manzil: 220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi,93
---	---	--	--